

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'YI INTELLEKTNI
RIVOJLANTIRISH ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.13.30.12.2021.T.142.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'YI INTELLEKTNI
RIVOJLANTIRISH ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

DJUMAYOZOV UMIDJON ZAFARJONOVICH

**ELASTIKLIK NAZARIYASINING DEFORMATSIYALARGA NISBATAN
MATEMATIK VA SONLI MODELLARI**

05.01.07 – Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

**Оглавление автореферата диссертации
доктора наук (DSc) по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract for Doctor of Sciences (DSc)
on technical sciences**

Djumayozov Umidjon Zafarjonovich

Elastiklik nazariyasining deformatsiyalarga nisbatan matematik va sonli modellari.....3

Джумаёзов Умиджон Зафаржонович

Математические и численные модели теории упругости в деформациях27

Djumayozov Umidjon Zafarjonovich

Mathematical and numerical models theory of elasticity in strains.....51

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....55

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'YI INTELLEKTNI
RIVOJLANTIRISH ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.13.30.12.2021.T.142.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'YI INTELLEKTNI
RIVOJLANTIRISH ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

DJUMAYOZOV UMIDJON ZAFARJONOVICH

**ELASTIKLIK NAZARIYASINING DEFORMATSIYALARGA NISBATAN
MATEMATIK VA SONLI MODELLARI**

05.01.07 – Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.DSc/T788 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.airi.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Xaldjigitov Abduvali Abdisamadovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Muxamadiyev Abdivali Shukurovich
fizika-matematika fanlari doktori, dotsent

Abirov Rustam Abdullaevich
fizika-matematika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Djaykov Gafur Muratbaevich
texnika fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat transport universiteti

Dissertatsiya himoyasi Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi DSc.13.30.12.2021.T.142.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "16" may soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100125, Toshkent shahri, M. Ulug'bek tuman, Bo'z-2 mavzesi, 17A uy. Tel.: (+99871) 263-41-98; e-mail: info@airi.uz).

Dissertatsiya bilan Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (59 -raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100125, Toshkent shahri, M. Ulug'bek tuman, Bo'z-2 mavzesi, 17A uy. Tel.: (+99871) 263-41-98; e-mail: info@airi.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "01" may kunida tarqatildi.
(2025-yil "14" aprel dagi 11 raqamli reestr bayonnomasi.)



N.Ravshanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor

F.M.Nuraliyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi,
texnika fanlari doktori, professor

E.Sh.Nazirova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
texnika fanlari doktori, professor

Kirish (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda olib borilayotgan ko‘plab ilmiy-amaliy tadqiqotlar turli omillarning ta‘sirini inobatga olgan holda inshootlarning mustahkamlik va ishonchlilik zaxiralarini hisoblashga qaratilgan. Turli obyektlar va ularning tarkibiy qismlarining mustahkamlik zaxirasini aniqlashning tajribalar davomida olingan empirik formulalari ko‘chishlar, kuchlanishlar hamda deformatsiyalarni hisoblash bilan bog‘liq chegaraviy masalalarni sonli yechishga asoslanadi. Deformatsiyalarni sonli hisoblashda ma‘lum approksimatsiya xatoliklari yuzaga keladi, bu esa qattiq jismlarning mustahkamlik zaxiralarini aniqlash aniqligiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Shu bois, deformatsiyalarda chegaraviy masalalarni shakllantirish va sonli yechish, shuningdek, inshootlarning mustahkamlik zaxiralarini yanada aniqroq va samaraliroq hisoblash masalasi xalqaro miqyosda deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasining eng dolzarb muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. Izotrop jismlarning chiziqli va nochiziqli deformatsiyalarini hisoblash uchun matematik modellar va algoritmlarni ishlab chiqish muammolari AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Rossiya Federatsiyasi, Yaponiya, Hindiston, Xitoy, Janubiy Koreya, Indoneziya va Malayziya kabi sanoati rivojlangan mamlakatlarda dolzarb hisoblanadi.

Zamonaviy tadqiqotlar va amaliy tatbiqlarda elastiklik nazariyasining chegaraviy masalalarini matematik modellashtirish ehtiyoji murakkab konstruksiyalar va materiallarning mexanik xususiyatlarini aniq va ishonchli tahlil qilish zaruriyati bilan bog‘liq. Elastiklik nazariyasining chegaraviy masalalari turli jismlardagi kuchlanishlar va deformatsiyalarning taqsimlanishini tushunish uchun asos bo‘lib, bu ularning mustahkamligi va chidamliligini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega. Yangi kompozit va nanomateriallardan konstruksiyalarni loyihalash, biotibbiyot qurilmalarini ishlab chiqish, mikro va nanotexnologiyalarda mikroskopik tuzilmalarni tahlil qilish kabi zamonaviy muhandislik vazifalarining murakkablashuvi bilan matematik modellashtirishning aniq va samarali usullariga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Shunday qilib, elastiklik nazariyasining chegaraviy masalalarini matematik modellashtirish zamonaviy ilmiy va muhandislik muammolarini yechish uchun zarur vosita bo‘lib, murakkab tizimlar va materiallarning mexanik xususiyatlarini tahlil qilishda kerakli aniqlik va ishonchlilikni ta‘minlab beradi.

Mamlakatimizda matematika, amaliy matematika, matematik modellashtirish va sonli modellashtirish rivojlantirishga, ayniqsa fundamental fanlar va zamonaviy axborot texnologiyalari doirasida ustuvor ahamiyat berilmoqda. Chiziqli va nochiziqli deformatsiyalanish jarayonlarini matematik va sonli modellashtirish, shuningdek, chekli ayirmalar usullarini, jumladan oshkor va oshkormas sxemalarni hamda ketma-ket yaqinlashish usullarini takomillashtirish borasida sezilarli yutuqlarga erishildi. Fundamental tadqiqotlarning asosiy vazifasi “Matematika-fizika, amaliy matematika va matematik modellashtirish” kabi muhim yo‘nalishlarda xalqaro darajada ilmiy ishlarni olib borishdan iborat. Qattiq jismlar deformatsiyalanish jarayonini matematik va sonli modellashtirish sohasidagi ilmiy

tadqiqotlar ushbu vazifalarni amalga oshirishda dolzarb deb tan olingan. Deformatsiyalanish jarayonlari asosida matematik va sonli modellarni yaratish hamda samarali dasturiy ta'minotni ishlab chiqish asosli qarorlar qabul qilish uchun muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston - 2030 strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2018-yil 19-fevraldagi PF-5349-son "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2018-yil 27-apreldagi PQ-3682-son "Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amalga oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2019-yil 24-may kuni O'zbekiston Milliy universitetida ta'lim va fan sohasi vakillari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvdagi nutqi hamda ushbu sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. "Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

Dissertatsiya mavzusi yuzasidan chet el ilmiy tadqiqotlari tahlili. Deformatsiya va kuchlanishlarda elastiklik nazariyasining chegaraviy masalalarini yechish uchun matematik modellar, samarali algoritmlar va dasturiy ta'minotni ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida olib borilmoqda. Bularga University of Naples Federico II, University of Brescia, Polytechnic University of Turin (Italiya), Institute of General Mechanics, RWTH Aachen University (Germaniya), Technical and Vocational University, Urmia University of Technology (Eron), National Aviation University (Ukraina), The University of Michigan (AQSH), China Agricultural University (Xitoy), N.E. Bauman nomidagi Moskva davlat texnika universiteti, M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti (Rossiya Federatsiyasi), Ozarbayjon davlat universiteti (Ozarbayjon), Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, M.T. O'rozboyev nomidagi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti (O'zbekiston), Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti (O'zbekiston) kabi muassasalar kiradi.

Elastiklik va termoelastiklik nazariyalarining chegaraviy masalalari (bog'langan va bog'lanmagan) bo'yicha deformatsiyalarga nisbatan sonli modellashtirish hamda elastiklik va termoelastiklik nazariyalarining chegaraviy masalalarini yechish uchun hisoblash algoritmlarini ishlab chiqish yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi natijalar qo'lga kiritildi: Beltrami-Michell tenglamalari doirasida elastiklik nazariyasining chegaraviy masalalarini sonli usulda

yechish uchun matematik modellar ishlab chiqildi. Cheksiz yarim tekislik uchun deformatsiyalarga oid tenglamalar ko‘rib chiqildi (China Agricultural University, Xitoy). Deformatsiyalarga nisbatan elastiklik nazariyasining simmetrik va garmonik deformatsiya tenzorlari uchun matematik modellari ishlab chiqilgan. Bundan tashqari, garmonik tenzorning deformatsiya tenzori orqali ifodalanishi aniqlandi. Har ikkala taqdimot ham elastiklik nazariyasining uch o‘lchovli masalasi uchun yangi o‘zgartirishni ifodalaydi (National Aviation University, Ukraina); kuchlanishlardagi uchta muvozanat tenglamalari hamda uchta Beltrami-Michell tenglamalari va muvozanat tenglamalarining natijasi ekanligi isbotlangan. Izotrop muhit uchun kuchlanishlarda elastiklik nazariyasi masalasining yangi qo‘yilishi shakllantirilgan (Rossiya Fanlar akademiyasining Sibir bo‘limi, Rossiya Federatsiyasi); ko‘chishlardagi chiziqli elastik masalalarning klassik qo‘yilishi kuchlanishlarda qo‘yilishi bilan bog‘liqligi o‘rganilgan. Agar Nave va B.E. Pobedri differensial operatorlari elliptik bo‘lsa, tegishli chegaraviy masalalar ekvivalent bo‘lishi ko‘rsatilgan. B.E Pobedri chegaraviy masalasi Fredholm xossasiga ega bo‘ladigan parametrlarning qiymatlari aniqlangan (M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Rossiya Federatsiyasi). Agar Nave va Pobedri differensial operatorlari elliptik bo‘lsa, u holda mos chegaraviy masalalar ekvivalent bo‘lishi ko‘rsatilgan.

Jahonda turli omillar ta‘sirini hisobga olgan holda konstruksiyalarning mustahkamlik va ishonchlilik zaxiralarini aniqlash samaradorligini oshirish bo‘yicha qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu izlanishlar quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda amalga oshirilmoqda: deformatsiya va kuchlanishlarga nisbatan elastiklik va termoelastiklik nazariyasining chegaraviy masalalarini sonli yechishning matematik modellari, sonli usullari va samarali algoritmlarini ishlab chiqish; elastik va termoelastik masalalarni yechish usullarini ishlab chiqish; elastiklik nazariyasining statik va dinamik masalalarini ishlab chiqish, obyektlarning mustahkamlik zaxiralarini aniqlash masalasini takomillashtirish uchun samarali algoritmlar va dasturiy ta‘minot yaratish.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Deformatsiyalanuvchi qattiq jism mexanikasida statik chegaraviy masala muvozanat tenglamasi, Guk qonuni, Koshi munosabati va tegishli chegaraviy shartlardan iborat bo‘lib, odatda ko‘chish komponentlariga nisbatan Lamé tenglamasiga keltiriladi. Bunda zaruriy deformatsiya va kuchlanishlar ma‘lum ko‘chishlar asosida Koshi munosabatlari va Guk qonuniga muvofiq hisoblanadi. Shu bilan birga, bu hisob-kitoblar sonli differensiallashning ma‘lum xatoligi bilan amalga oshiriladi. Kuchlanish va deformatsiyalarga nisbatan chegaraviy masalalarni shakllantirish esa mazkur xatoliklardan qochish imkonini beradi.

Odatda elastiklik nazariyasining chegaraviy masalalarini sonli yechishda chekli elementlar usuli, chekli ayirmalar usuli, chegaraviy elementlar usuli va boshqa usullardan keng foydalaniladi. Bu usullarning asoslari O. Zenkevich, B. Pobedrya, V. Kabulov, T. Bo‘riyev, M. Mirsaidov, K. Sultanov, F. Badalov, M. Aripov, I. Mirzayev, R. Aloyev, N. Ravshanov, B. Kurmanbayev, A.A. Xaldjigitov, B. Xusanov, R.A. Abirov va boshqalarning ishlarida o‘rganilgan.

Deformatsiyalarga oid chegaraviy masalalar elastiklik nazariyasining kam tadqiq qilingan sohasi hisoblanadi. Deformatsiya tenzoriga nisbatan elastiklik nazariyasining chegaraviy masalasini shakllantirish deformatsiyalanuvchi qattiq jism mexanikasining dolzarb masalasidir.

Deformatsiyalarning birgalikda bo'lish sharti ilk bor Novatskiyning ishida deformatsiyalarga nisbatan differensial tenglamalar ko'rinishida yozilgan va o'rganilgan. Elastiklik nazariyasining deformatsiyalarga nisbatan chegaraviy masalalarini to'g'ri qo'yish masalalari esa B.E. Pobedryaning ishlarida tadqiq etilgan. Yarim cheksiz soha uchun elastiklik nazariyasi masalasining yechimi sifatida deformatsiyalarga nisbatan integral tenzor tasavvurlar Borodachevning tadqiqotlarida ko'rib chiqilgan. B.E. Pobedryaning ishlarida deformatsiyalarning birgalikda bo'lish tenglamalari muvozanat tenglamasi bilan birgalikda deformatsiyalar va kuchlanishlar tenzori komponentlariga nisbatan oltita differensial tenglama ko'rinishida ifodalangan. Xususiyl holda, kuchlanishlarga nisbatan yangi qo'yilishdan Beltrami-Michellning klassik tenglamalari kelib chiqadi. Borodachevning ishlarida Beltrami-Michell tenglamalarining birinchi guruhi ikkinchi guruh tenglamalariga bog'liqligi aniqlangan. Novatskiyning tadqiqotlarida esa deformatsiyalarning birgalikda bo'lish sharti haroratni hisobga olgan holda ham o'rganilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti FZ-2020092877 "Birjinslimas g'ovak muhitlarda anomal moddalar ko'chishi va suyuqliklar sızishi jarayonlarining matematik modellarini tuzish va sonli tadqiq etish" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi obyektlarning mustahkamlik zaxiralarini yuqori aniqlikda hisoblash uchun deformatsiyalarga nisbatan elastiklik va termoelastiklik nazariyasining chegaraviy masalalarini sonli usulda yechishga mo'ljallangan matematik modellar, samarali hisoblash algoritmlari va dasturiy ta'minotlar majmuasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

elastiklik nazariyasining deformatsiyalarga nisbatan tekis va fazoviy statik hamda dinamik chegaraviy masalalarining model tenglamalarini ishlab chiqish;

deformatsiyalarga nisbatan termoelastiklik nazariyasining bog'lanmagan statik model tenglamalarini ishlab chiqish;

deformatsiyalarda termoelastiklik nazariyasining bog'langan ikki va uch o'lchovli model tenglamalarini ishlab chiqish;

elastik va termoelastik nazariyasi masalalarini yechishning sonli algoritmlarini ishlab chiqish;

deformatsiyalarda elastiklik va termoelastiklik nazariyasining statik va dinamik masalalarini sonli yechish uchun dasturiy majmuani ishlab chiqish;

turli boshlang'ich va chegaraviy issiqlik-mexanik sharoitlarda to'g'ri burchakli plastina va parallelepipedning deformatsiyalarga nisbatan elastiklik va termoelastiklik nazariyasining statik va dinamik masalalarini sonli yechish.

Tadqiqot obyekti sifatida yassi va fazoviy jismlarning mexanik va termomexanik kuchlar ta'sirida deformatsiyalanish jarayoni olingan.

Tadqiqot predmeti deformatsiyalarga nisbatan qattiq jismlarning deformatsiyalanish jarayonining matematik va sonli modellari hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida sonli modellashtirish usullari, chekli ayirmalar sxemalari, iteratsion usullar, progonka usuli, o'zgaruvchan yo'nalishlar usuli, dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish uchun dasturlash texnologiyasi usullari hamda hisoblash tajribasi usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

elastiklik nazariyasining statik masalalari deformatsiyalarning birgalikda bo'lish sharti asosida deformatsiyalarga nisbatan matematik model tenglamalari ishlab chiqilgan;

elastiklik nazariyasining dinamik (tekis va fazoviy) masalalari Sen-Venan shartini hisobga olgan holda deformatsiyalarga nisbatan matematik model tenglamalari ishlab chiqilgan;

ikki va uch o'lchovli termoelastik chegaraviy masalalar deformatsiya tenzori komponentalariga nisbatan Puasson tenglamalari sistemasiga keltirilgan;

bog'langan termoelastik nazariyasining dinamik chegaraviy masalalari Sen-Venan sharti asosida deformatsiya hamda haroratga nisbatan matematik model tenglamalari ishlab chiqilgan;

elastik, termoelastik nazariyalarining bog'langan hamda bog'lanmagan chegaraviy masalalari deformatsiyalarga nisbatan ikki va uch o'lchovli chekli-ayirmali tenglamalari taklif etilgan;

deformatsiyalarda elastiklik, termoelastiklik nazariyasining statik va dinamik bog'langan hamda bog'lanmagan masalalarini yechish uchun sonli algoritm ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat: turli konstruksiyalar va ularning tarkibiy qismlarining mustahkamlik va ishonchlilik zaxiralarini samarali aniqlash imkonini beruvchi matematik va sonli modellar ishlab chiqilgan;

qattiq jismlarning termomexanik yuklamalar ta'siridagi kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini o'rganish imkonini beruvchi C++ dasturlash tilida dasturiy majmua yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi Matematik formulalarning qat'iyligi, sonli natijalarni ma'lum yechimlar bilan taqqoslanganligi hamda hisoblash tajribalarini o'tkazilganligi orqali asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ma'lum usullardan farqli ravishda, elastik va termoelastik masalalar uchun deformatsiya va haroratga nisbatan matematik modellar ishlab chiqilganligi va qattiq jismlarning mustahkamlik darajasini yuqori aniqlikda hisoblash imkonini berishi bilan izohlangan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati sonli modellarni qurish, qattiq jismlarning kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini hisoblash algoritmlari va dasturlar majmuini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Deformatsiyalanish jarayonini ifodalovchi yangi matematik va sonli modellar hamda dasturiy majmua ishlab chiqish asosida:

elastik va termoelastik nazariyasining deformatsiyalanish jarayonini ifodalovchi matematik model tenglamalar asosida ishlab chiqilgan dasturiy majmua “O‘zbektelekom” AJ Samarqand filialida joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2024-yil 21-maydagi 33-8/3325-sonli ma’lumotnomasi). Natijada plastinasimon yupqa elementning geometrik, mexanik va termomexanik parametrlarini aniqroq hisoblash, nostatsionar elektrodinamik kuchlar ta’sirida plitaning mustahkamligini 7-10% ga oshishiga, vaqt va mehnat sarfini 10-14% ga kamaytirish imkonini bergan;

elastik va termoelastik nazariyasining deformatsiyalarga nisbatan tekis va fazoviy masalalarini sonli yechish yordamida ishlab chiqilgan dasturiy majmua “UNICON SOFT” MChJ Samarqand filialida joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2024-yil 21-maydagi 33-8/3325-sonli ma’lumotnomasi). Natijada token qurilmalarini ishlab chiqishda turli ta’sirlar ostidagi deformatsiya va kuchlanishning taqsimlanishini aniqlash, optimal elastiklikka ega bo‘lgan mustahkam materialni tanlash, qurilmalar konstruksiyasining kuchlanish va deformatsiyaga chidamliligini hisoblash asosida materialning mustahkamligi 5-8% ga ortishiga hamda mehnat va xarajat sarfini 8-10% ga kamaytirish imkonini bergan;

jismlarning mexanik va termik faktorlar asosida deformatsiyalanish jarayonini ifodalovchi sonli modellar va dasturiy majmua “ARXPROEKT” MChJ, “ZARKAMRUS QURILISH LOYIXA” MChJ, “BINO INSHOOT ME’MOR” MChJ, “MD GROUP” MChJ qurilish tashkilotlarida joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2024-yil 21-maydagi 33-8/3325-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi mehnat unumdorligini 10-12% ga oshirish va xarajatlarni 8-10% ga kamaytirishga imkon bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur dissertatsiya tadqiqotining natijalari 5 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 25 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 17 ta maqola, jumladan, 9 tasi xalqaro va 8 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan hamda 3 ta EHM uchun yaratilgan dasturiy mahsulotlarni qaydlash guvohnomalari olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning hajmi 172 betni tashkil etgan bo‘lib, kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining O‘zbekiston Respublikasi fani va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mos ravishda dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, maqsad va vazifalar shakllantirilgan, tadqiqotning obyekti va predmeti ko‘rsatilgan, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyatlari ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etish holatlari, shuningdek, tadqiqot natijalarining chop etilganligi hamda dissertatsiya tuzilishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Deformatsiyalarda elastiklik nazariyasining statik masalalari**” deb nomlangan birinchi bobi qattiq jismlarning deformatsiyalarga nisbatan chiziqli deformatsiyalanish jarayonini ifodalovchi model tenglamalarni shakllantirishga bag‘ishlangan.

1.1-paragrafda kuchlanish va deformatsiyalarda elastiklik nazariyasining chegaraviy masalalarini matematik modellashtirish bo‘yicha adabiyot manbalarining sharhi va tahlili keltirilgan.

1.2-paragrafda deformatsiyalarning birgalikda bo‘lish sharti ko‘rib chiqilgan va deformatsiyalarning uzluksiz differensial tenglamasi shakllantirilgan. Ma’lumki, deformatsiyalarning birgalik bo‘lish sharti (Sen-Venan sharti) quyidagi ko‘rinishga ega

$$\nabla^2 \varepsilon_{ij} + \theta_{,ij} - \varepsilon_{ik,kj} - \varepsilon_{jk,ki} = 0, \quad \theta = \varepsilon_{kk}. \quad (1)$$

Deformatsiyalarga nisbatan ifodalangan muvozanat tenglamasi yordamida

$$\lambda \theta_{,i} + 2\mu \varepsilon_{ij,j} + X_i = 0, \quad (2)$$

(1) shartni deformatsiyalarning uzluksiz differensial tenglamasi ko‘rinishida yozish mumkin

$$\mu \nabla^2 \varepsilon_{ij} + (\lambda + \mu) \theta_{,ij} + \frac{1}{2} (X_{i,j} + X_{j,i}) = 0. \quad (3)$$

1.3-paragrafda elastiklik nazariyasining deformatsiyalardagi statik chegaraviy masalalari shakllantirilgan. (3) differensial tenglamaga (2) muvozanat tenglamalarini va deformatsiyalar orqali ifodalangan chegaraviy shartlarni qo‘shish orqali

$$(\lambda \theta \delta_{ij} + 2\mu \varepsilon_{ij}) n_j \Big|_{\Sigma_2} = S_i. \quad (4)$$

elastiklik nazariyasining deformatsiyalarga nisbatan chegaraviy masalasini hosil qilamiz (*A masala*).

Deformatsiya tenzorining oltita noma’lum komponentlarini aniqlash uchun uchta chegaraviy shartli to‘qqizta tenglamaga ega bo‘lamiz. Yopiq chegaraviy masalani hosil qilish uchun odatdagi uchta sirt chegaraviy shartlariga muvozanat tenglamasi asosida yana uchta “qo‘shimcha” chegaraviy shartlarni qo‘shish zarur, ya’ni

$$(\lambda \theta_{,i} + 2\mu \varepsilon_{ij,j} + X_i) \Big|_{\Sigma} = 0. \quad (5)$$

Natijada muvozanat tenglamalari (2), deformatsiyalarning uzluksiz differensial tenglamalari (3), chegaraviy shartlar (4) va qo‘shimcha chegaraviy shartlar (5) deformatsiyalardagi elastiklik nazariyasining umumiy chegaraviy masalasini tashkil etadi (*A masala*).

A masala deformatsiyalarga nisbatan to‘qqizta, ya’ni uchta muvozanat tenglamasidan (hajmiy kuchlar bo‘lmaganda)

$$\begin{aligned}(\lambda + 2\mu)\frac{\partial \varepsilon_{11}}{\partial x} + \lambda\left(\frac{\partial \varepsilon_{22}}{\partial x} + \frac{\partial \varepsilon_{33}}{\partial x}\right) + 2\mu\left(\frac{\partial \varepsilon_{12}}{\partial y} + \frac{\partial \varepsilon_{13}}{\partial z}\right) &= 0, \\(\lambda + 2\mu)\frac{\partial \varepsilon_{22}}{\partial y} + \lambda\left(\frac{\partial \varepsilon_{11}}{\partial y} + \frac{\partial \varepsilon_{33}}{\partial y}\right) + 2\mu\left(\frac{\partial \varepsilon_{12}}{\partial x} + \frac{\partial \varepsilon_{23}}{\partial z}\right) &= 0, \\(\lambda + 2\mu)\frac{\partial \varepsilon_{33}}{\partial z} + \lambda\left(\frac{\partial \varepsilon_{11}}{\partial z} + \frac{\partial \varepsilon_{22}}{\partial z}\right) + 2\mu\left(\frac{\partial \varepsilon_{13}}{\partial x} + \frac{\partial \varepsilon_{23}}{\partial y}\right) &= 0,\end{aligned}\tag{6}$$

va deformatsiyalarning uzluksiz oltita differensial tenglamasidan iborat

$$\begin{aligned}\mu\left(\frac{\partial^2 \varepsilon_{11}}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{11}}{\partial y^2} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{11}}{\partial z^2}\right) + (\lambda + \mu)\left(\frac{\partial^2 \varepsilon_{11}}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{22}}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{33}}{\partial x^2}\right) &= 0, \\ \mu\left(\frac{\partial^2 \varepsilon_{22}}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{22}}{\partial y^2} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{22}}{\partial z^2}\right) + (\lambda + \mu)\left(\frac{\partial^2 \varepsilon_{11}}{\partial y^2} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{22}}{\partial y^2} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{33}}{\partial y^2}\right) &= 0, \\ \mu\left(\frac{\partial^2 \varepsilon_{33}}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{33}}{\partial y^2} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{33}}{\partial z^2}\right) + (\lambda + \mu)\left(\frac{\partial^2 \varepsilon_{11}}{\partial z^2} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{22}}{\partial z^2} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{33}}{\partial z^2}\right) &= 0, \\ \mu\left(\frac{\partial^2 \varepsilon_{12}}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{12}}{\partial y^2} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{12}}{\partial z^2}\right) + (\lambda + \mu)\left(\frac{\partial^2 \varepsilon_{11}}{\partial x \partial y} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{22}}{\partial x \partial y} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{33}}{\partial x \partial y}\right) &= 0, \\ \mu\left(\frac{\partial^2 \varepsilon_{13}}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{13}}{\partial y^2} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{13}}{\partial z^2}\right) + (\lambda + \mu)\left(\frac{\partial^2 \varepsilon_{11}}{\partial x \partial z} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{22}}{\partial x \partial z} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{33}}{\partial x \partial z}\right) &= 0, \\ \mu\left(\frac{\partial^2 \varepsilon_{23}}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{23}}{\partial y^2} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{23}}{\partial z^2}\right) + (\lambda + \mu)\left(\frac{\partial^2 \varepsilon_{11}}{\partial y \partial z} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{22}}{\partial y \partial z} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{33}}{\partial y \partial z}\right) &= 0.\end{aligned}\tag{7}$$

Muvozanat tenglamalari (6) yordamida deformatsiyalarning uzluksiz differensial tenglamalarining birinchi guruhi (deformatsiyalar tenzorining diagonal komponentlari) (7) deformatsiyalarning birgalikda bo‘lish shartining birinchi uchtagiga ekvivalent ekanligini ko‘rsatish mumkin. Shuningdek, (7) tenglamalarni qo‘shish orqali quyidagi garmonik tenglamani topish mumkin, ya’ni

$$\Delta(\varepsilon_{11} + \varepsilon_{22} + \varepsilon_{33}) = 0.\tag{9}$$

(6-8) differensial tenglamalar asosida bir nechta chegaraviy masalalarni tuzish mumkin.

Birinchi holda, Eri tipidagi potensial funksiyalarni kiritish orqali, (6) muvozanat tenglamalarini (9) bilan birgalikda qanoatlantiruvchi chegaraviy masala sifatida ko‘rib chiqish mumkin (*B masala*).

(6) muvozanat tenglamalari va (8) deformatsiyalarning uzluksiz differensial tenglamalari ikkinchi masalasini tashkil etadi (*C masala*).

$$\begin{aligned}
(\lambda + 2\mu) \frac{\partial \varepsilon_{11}}{\partial x} + \lambda \left(\frac{\partial \varepsilon_{22}}{\partial x} + \frac{\partial \varepsilon_{33}}{\partial x} \right) + 2\mu \left(\frac{\partial \varepsilon_{12}}{\partial y} + \frac{\partial \varepsilon_{13}}{\partial z} \right) &= 0, \\
(\lambda + 2\mu) \frac{\partial \varepsilon_{22}}{\partial y} + \lambda \left(\frac{\partial \varepsilon_{11}}{\partial y} + \frac{\partial \varepsilon_{33}}{\partial y} \right) + 2\mu \left(\frac{\partial \varepsilon_{12}}{\partial x} + \frac{\partial \varepsilon_{23}}{\partial z} \right) &= 0, \\
(\lambda + 2\mu) \frac{\partial \varepsilon_{33}}{\partial z} + \lambda \left(\frac{\partial \varepsilon_{11}}{\partial z} + \frac{\partial \varepsilon_{22}}{\partial z} \right) + 2\mu \left(\frac{\partial \varepsilon_{13}}{\partial x} + \frac{\partial \varepsilon_{23}}{\partial y} \right) &= 0, \\
\mu \left(\frac{\partial^2 \varepsilon_{12}}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{12}}{\partial y^2} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{12}}{\partial z^2} \right) + (\lambda + \mu) \left(\frac{\partial^2 \varepsilon_{11}}{\partial x \partial y} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{22}}{\partial x \partial y} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{33}}{\partial x \partial y} \right) &= 0, \\
\mu \left(\frac{\partial^2 \varepsilon_{13}}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{13}}{\partial y^2} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{13}}{\partial z^2} \right) + (\lambda + \mu) \left(\frac{\partial^2 \varepsilon_{11}}{\partial x \partial z} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{22}}{\partial x \partial z} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{33}}{\partial x \partial z} \right) &= 0, \\
\mu \left(\frac{\partial^2 \varepsilon_{23}}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{23}}{\partial y^2} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{23}}{\partial z^2} \right) + (\lambda + \mu) \left(\frac{\partial^2 \varepsilon_{11}}{\partial y \partial z} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{22}}{\partial y \partial z} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{33}}{\partial y \partial z} \right) &= 0.
\end{aligned} \tag{10}$$

Agar (6) muvozanat tenglamalarini x, y, z bo'yicha differensiallangan holda (8) bilan birgalikda qarash, elastiklik nazariyasining deformatsiyalardagi yana bir chegaraviy masalasini hosil qilamiz (*D masala*).

$$\begin{aligned}
(\lambda + 2\mu) \frac{\partial^2 \varepsilon_{11}}{\partial x^2} + \lambda \left(\frac{\partial^2 \varepsilon_{22}}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{33}}{\partial x^2} \right) + 2\mu \left(\frac{\partial^2 \varepsilon_{12}}{\partial x \partial y} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{13}}{\partial x \partial z} \right) &= 0, \\
(\lambda + 2\mu) \frac{\partial^2 \varepsilon_{22}}{\partial y^2} + \lambda \left(\frac{\partial^2 \varepsilon_{11}}{\partial y^2} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{33}}{\partial y^2} \right) + 2\mu \left(\frac{\partial^2 \varepsilon_{12}}{\partial x \partial y} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{23}}{\partial y \partial z} \right) &= 0, \\
(\lambda + 2\mu) \frac{\partial^2 \varepsilon_{33}}{\partial z^2} + \lambda \left(\frac{\partial^2 \varepsilon_{11}}{\partial z^2} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{22}}{\partial z^2} \right) + 2\mu \left(\frac{\partial^2 \varepsilon_{13}}{\partial x \partial z} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{23}}{\partial y \partial z} \right) &= 0, \\
\mu \left(\frac{\partial^2 \varepsilon_{12}}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{12}}{\partial y^2} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{12}}{\partial z^2} \right) + (\lambda + \mu) \left(\frac{\partial^2 \varepsilon_{11}}{\partial x \partial y} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{22}}{\partial x \partial y} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{33}}{\partial x \partial y} \right) &= 0, \\
\mu \left(\frac{\partial^2 \varepsilon_{13}}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{13}}{\partial y^2} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{13}}{\partial z^2} \right) + (\lambda + \mu) \left(\frac{\partial^2 \varepsilon_{11}}{\partial x \partial z} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{22}}{\partial x \partial z} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{33}}{\partial x \partial z} \right) &= 0, \\
\mu \left(\frac{\partial^2 \varepsilon_{23}}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{23}}{\partial y^2} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{23}}{\partial z^2} \right) + (\lambda + \mu) \left(\frac{\partial^2 \varepsilon_{11}}{\partial y \partial z} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{22}}{\partial y \partial z} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{33}}{\partial y \partial z} \right) &= 0.
\end{aligned} \tag{11}$$

A, B, C va D chegaraviy masalalar uchun (4) chegaraviy shartlar hamda (5) qo'shimcha chegaraviy shartlar bir xil hisoblanadi.

1.4-paragrafda ikki o'lchamli holda A, B, C va D chegaraviy masalalar ko'rib chiqilgan.

1.5-paragrafda B.E. Pobedrya tomonidan taklif etilgan kuchlanishlardagi yangi model tenglamalar ko'rib chiqilgan. Ular deformatsiyalarga nisbatan yozilgan bo'lib, chegaraviy va qo'shimcha chegaraviy shartlarni hisobga olgan holda deformatsiyalarga nisbatan chegaraviy masala ko'rinishida shakllantirilgan (*E masala*).

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Elastiklik nazariyasining termoelastik masalalari**” deb nomlanib, unda deformatsiyalarga nisbatan termoelastiklik nazariyasining yassi va fazoviy masalalari qo‘yilishi ko‘rib chiqilgan.

2.1-paragrafda haroratni hisobga olgan holda deformatsiyalarning uzluksiz differensial tenglamalari keltirilgan.

$$\nabla^2 \varepsilon_{ij} + K\theta_{,ij} = -\frac{1}{2\mu}(X_{i,j} + X_{j,i}) + \frac{1}{2\mu}(3\lambda + 2\mu)\alpha T_{,ij}. \quad (12)$$

bu yerda α – issiqlik kengayish koeffitsiyenti, T – harorat, $K = 1 + \lambda / \mu$.

2.2-paragrafda deformatsiyalarda termoelastik nazariyasining fazoviy masalasi qo‘yilishi ko‘rib chiqilgan bo‘lib, u (12) tenglama va deformatsiyalarga nisbatan yozilgan muvozanat tenglamasidan iborat (A_T masala).

$$\lambda\theta_{,i} + 2\mu\varepsilon_{ij,j} - (3\lambda + 2\mu)\alpha T_{ij,j} + X_i = 0, \quad (13)$$

chegaraviy shartlar deformatsiyalarga nisbatan quyidagi ko‘rinishga ega

$$(\lambda\theta\delta_{ij} + 2\mu\varepsilon_{ij} - (3\lambda + 2\mu)\alpha T_{ij})n_j \Big|_{\Sigma_2} = S_i, \quad (14)$$

va qo‘shimcha chegaraviy shart

$$(\lambda\theta_{,i} + 2\mu\varepsilon_{ij,j}(3\lambda + 2\mu)\alpha T_{ij,j} + X_i) \Big|_{\Sigma} = 0. \quad (15)$$

Muvozanat tenglamalari (13) va deformatsiyalarning birgalikdagi bo‘lish shartining nodiogonal differensial tenglamalari (12), ya’ni

$$\nabla^2 \varepsilon_{ij} + K\theta_{,ij} = -\frac{1}{2\mu}(X_{i,j} + X_{j,i}) + \frac{1}{2\mu}(3\lambda + 2\mu)\alpha T_{,ij}, \quad i \neq j. \quad (16)$$

deformatsiyalarga nisbatan termoelastiklikning chegaraviy masalasini tashkil etadi (C_T masala).

C_T masalada muvozanat tenglamasini differensiallangan holda qo‘llasak, elastiklik nazariyasining deformatsiyalardagi yana bir chegaraviy masalasini hosil qilamiz (D_T masala). A_T , C_T va D_T chegaraviy masalalari uchun (14) chegaraviy shartlar va (15) qo‘shimcha shartlar bir xil bo‘ladi.

2.3-paragrafda Sen-Venan differensial tenglamalari deformatsiya tenzorining oltita komponentiga nisbatan Puasson differensial tenglamalari shaklida yangi ko‘rinishda ifodalangan (F_T masala).

$$\nabla^2 \varepsilon_{ij} = \frac{3\lambda + 2\mu}{2(\lambda + 2\mu)} \alpha T_{,ij}. \quad (17)$$

bu tenglamalar uchun chegaraviy (14) va qo‘shimcha chegaraviy (15) shartlar bilan qaraladi.

2.4-paragrafda to‘g‘ri to‘rtburchakli soha uchun A_T , C_T , D_T va F_T chegaraviy masalalar ko‘rib chiqilgan.

2.5-paragraf A_T , C_T va D_T chegaraviy masalalaridan kelib chiqqan holda termoelastiklikning yassi qisman bog‘langan chegaraviy masalalarini shakllantirishga bag‘ishlangan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Deformatsiyalardagi elastiklik va termoelastiklik nazariyasining dinamik masalalari**” deb nomlanib, unda

elastiklik va termoelastiklik nazariyasining deformatsiyalardagi dinamik bog‘langan va bog‘lanmagan chegaraviy masalalarini shakllantirish ko‘rib chiqilgan.

3.1-paragrafda deformatsiyalarning birgalikda bo‘lish tenglamalari Guk qonuni va harakat tenglamalari yordamida deformatsiyalarga nisbatan giperbolik differensial tenglamalar sistemasiga keltirilgan.

$$\mu \nabla^2 \varepsilon_{ij} + (\lambda + \mu) \theta_{,ij} + \frac{1}{2} \rho (X_{i,j} + X_{j,i}) = \rho \ddot{\varepsilon}_{ij}. \quad (18)$$

3.2-paragrafda (18) ga deformatsiyalarga nisbatan harakat tenglamasini qo‘shib

$$\lambda \theta_{,i} + 2\mu \varepsilon_{ij,j} + \rho X_i = \rho \ddot{u}_i, \quad (19)$$

boshlang‘ich

$$\varepsilon_{ij} \Big|_{t=0} = \xi(x, y, z), \quad \frac{\partial \varepsilon_{ij}}{\partial t} \Big|_{t=0} = \mathcal{G}(x, y, z), \quad (20)$$

hamda chegaraviy shartlar

$$\varepsilon_{ij} \Big|_{\Sigma_1} = \psi(t), \quad \sigma_{ij} n_j \Big|_{\Sigma_2} = \zeta(t). \quad (21)$$

orqali elastiklik nazariyasining deformatsiyalardagi dinamik chegaraviy masalasi shakllantirilgan (*A_D masala*). (19) tenglamadagi u_i dan qutulish maqsadida, uni mos ravishda x_i bo‘yicha differensiallaymiz, ya’ni

$$\begin{aligned} (\lambda + 2\mu) \frac{\partial^2 \varepsilon_{11}}{\partial x^2} + \lambda \left(\frac{\partial^2 \varepsilon_{22}}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{33}}{\partial x^2} \right) + 2\mu \left(\frac{\partial^2 \varepsilon_{12}}{\partial x \partial y} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{13}}{\partial x \partial z} \right) &= \rho \frac{\partial^2 \varepsilon_{11}}{\partial t^2}, \\ (\lambda + 2\mu) \frac{\partial^2 \varepsilon_{22}}{\partial y^2} + \lambda \left(\frac{\partial^2 \varepsilon_{11}}{\partial y^2} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{33}}{\partial y^2} \right) + 2\mu \left(\frac{\partial^2 \varepsilon_{12}}{\partial x \partial y} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{23}}{\partial y \partial z} \right) &= \rho \frac{\partial^2 \varepsilon_{22}}{\partial t^2}, \\ (\lambda + 2\mu) \frac{\partial^2 \varepsilon_{33}}{\partial z^2} + \lambda \left(\frac{\partial^2 \varepsilon_{11}}{\partial z^2} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{22}}{\partial z^2} \right) + 2\mu \left(\frac{\partial^2 \varepsilon_{13}}{\partial x \partial z} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{23}}{\partial y \partial z} \right) &= \rho \frac{\partial^2 \varepsilon_{33}}{\partial t^2}. \end{aligned} \quad (22)$$

Harakat tenglamalari (22) ikkinchi guruh tenglamalari (18) bilan birgalikda C_D chegaraviy masalasini tashkil etadi. A_D , C_D va D_D chegaraviy masalalari uchun boshlang‘ich va chegaraviy shartlar (20) va (21) ko‘rinishida berilgan.

3.3-paragrafda elastiklik nazariyasining dinamik chegaraviy masalalari deformatsiyalarga nisbatan ikki o‘lchovli holda ko‘rib chiqilgan.

3.4-paragrafda termoelastiklikning bog‘langan dinamik chegaraviy masalasi shakllantirilgan bo‘lib, u deformatsiya va haroratga nisbatan ifodalangan harakat tenglamalaridan, $i \neq j$ holatdagi (18) tenglama hamda issiqlik oqimi tenglamasidan tashkil topgan.

3.5-paragraf to‘g‘ri to‘rtburchakli soha uchun o‘zaro bog‘langan termoelastiklik masalalarini ifodalashga bag‘ishlangan.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi “**Chekli-ayirmali tenglamalar va ularni yechish usullari**” deb nomlanib, oldingi boblarda ko‘rib chiqilgan elastik va termoelastik chegaraviy masalalar uchun deformatsiyalarga nisbatan chekli-ayirmali tenglamalarni tuzishga bag‘ishlangan.

4.1-paragrafda tekis C^{2D} , D^{2D} va E^{2D} hamda fazoviy C , D va E masalalar uchun chekli-ayirmali tenglamalar keltirilgan. D^{2D} chegaraviy masalaning chekli-ayirmali analogi quyidagi ko‘rinishga ega, ya’ni

$$\begin{aligned}
(\lambda + 2\mu) \frac{\varepsilon_{i+1,j}^{11} - 2\varepsilon_{i,j}^{11} + \varepsilon_{i-1,j}^{11}}{h_1^2} + \lambda \frac{\varepsilon_{i+1,j}^{22} - 2\varepsilon_{i,j}^{22} + \varepsilon_{i-1,j}^{22}}{h_1^2} + 2\mu \frac{\varepsilon_{i+1,j+1}^{12} - \varepsilon_{i-1,j+1}^{12} - \varepsilon_{i+1,j-1}^{12} + \varepsilon_{i-1,j-1}^{12}}{4h_1h_2} &= 0, \\
(\lambda + 2\mu) \frac{\varepsilon_{i,j+1}^{22} - 2\varepsilon_{i,j}^{22} + \varepsilon_{i,j-1}^{22}}{h_2^2} + \lambda \frac{\varepsilon_{i,j+1}^{11} - 2\varepsilon_{i,j}^{11} + \varepsilon_{i,j-1}^{11}}{h_2^2} + 2\mu \frac{\varepsilon_{i+1,j+1}^{12} - \varepsilon_{i-1,j+1}^{12} - \varepsilon_{i+1,j-1}^{12} + \varepsilon_{i-1,j-1}^{12}}{4h_1h_2} &= 0, \\
\mu \left(\frac{\varepsilon_{i+1,j}^{12} - 2\varepsilon_{i,j}^{12} + \varepsilon_{i,j}^{12}}{h_1^2} + \frac{\varepsilon_{i,j+1}^{12} - 2\varepsilon_{i,j}^{12} + \varepsilon_{i,j-1}^{12}}{h_2^2} \right) + (\lambda + \mu) \left(\frac{\varepsilon_{i+1,j+1}^{11} - \varepsilon_{i+1,j-1}^{11} - \varepsilon_{i-1,j+1}^{11} + \varepsilon_{i-1,j-1}^{11}}{4h_1h_2} + \right. & \\
\left. + \frac{\varepsilon_{i+1,j+1}^{22} - \varepsilon_{i+1,j-1}^{22} - \varepsilon_{i-1,j+1}^{22} + \varepsilon_{i-1,j-1}^{22}}{4h_1h_2} \right) &= 0.
\end{aligned} \tag{23}$$

(23) chekli-ayirmali tenglamalarni yechish uchun tegishli o‘qlar bo‘yicha o‘zgaruvchan yo‘nalishlar usulini qo‘llaymiz.

$$\begin{aligned}
a_i \varepsilon_{i+1,j}^{11} + b_i \varepsilon_{i,j}^{11} + c_i \varepsilon_{i-1,j}^{11} &= f_{i,j}^x, \\
\begin{cases} \alpha_{01} \varepsilon_{0,j}^{11} + \beta_{01} \varepsilon_{1,j}^{11} = \gamma_{01}, \\ \alpha_{02} \varepsilon_{n-1,j}^{11} + \beta_{02} \varepsilon_{n,j}^{11} = \gamma_{02}. \end{cases} & \tag{24}
\end{aligned}$$

Guk qonunini inobatga olgan holda, chegaraviy shartlarni deformatsiyalarga nisbatan quyidagi ko‘rinishda ifodalash mumkin.

$$\begin{aligned}
\varepsilon_{0j}^{11} = 0, \quad \varepsilon_{N_1j}^{11} = 0, \quad \varepsilon_{0j}^{12} = 0, \quad \varepsilon_{N_1j}^{12} = 0, \\
\varepsilon_{i0}^{22} = 0, \quad \varepsilon_{iN_2}^{22} = 0, \quad \varepsilon_{i0}^{21} = 0, \quad \varepsilon_{iN_2}^{21} = 0.
\end{aligned} \tag{25}$$

To‘g‘ri to‘rtburchakli soha uchun qo‘shimcha chegaraviy shartlarni, mos ravishda ε^{11} va ε^{22} uchun, $y=0, l_2$ va $x=0, l_1$ bo‘lganda muvozanat tenglamasidan topib olamiz.

$$\begin{aligned}
\varepsilon_{i0}^{11} = -\frac{2\mu}{\lambda} \frac{\varepsilon_{i+1,0}^{21} - \varepsilon_{i-1,0}^{21}}{2h_1}, \quad \varepsilon_{iN_2}^{11} = -\frac{2\mu}{\lambda} \frac{\varepsilon_{i+1,N_2}^{21} - \varepsilon_{i-1,N_2}^{21}}{2h_1}, \\
\varepsilon_{0j}^{22} = -\frac{2\mu}{\lambda} \frac{\varepsilon_{0,j+1}^{12} - \varepsilon_{0,j-1}^{12}}{2h_2}, \quad \varepsilon_{N_1j}^{22} = -\frac{2\mu}{\lambda} \frac{\varepsilon_{N_1,j+1}^{12} - \varepsilon_{N_1,j-1}^{12}}{2h_2}.
\end{aligned} \tag{26}$$

4.2-paragraf deformatsiyalarda termoelastik nazariyasining chegaraviy masalalari uchun chekli-ayirmali tenglamalarni tuzishga bag‘ishlangan.

4.3-paragrafda F_T masalasi uchun deformatsiyalardagi termoelastiklikning yangi chegaraviy masalasiga oid chekli-ayirmali tenglamalar keltirilgan. F_T chegaraviy masalasi ikki va uch o‘lchovli holatlarda ko‘rib chiqilgan. F_T^{2D} chegaraviy masalaning chekli-ayirmali analogi quyidagi ko‘rinishga ega

$$\begin{aligned} \frac{\varepsilon_{i+1,j}^{11} - 2\varepsilon_{i,j}^{11} + \varepsilon_{i-1,j}^{11}}{h_1^2} + \frac{\varepsilon_{i,j+1}^{11} - 2\varepsilon_{i,j}^{11} + \varepsilon_{i,j-1}^{11}}{h_2^2} &= \alpha \frac{3\lambda + 2\mu}{2(\lambda + 2\mu)} \frac{T_{i+1,j} - 2T_{i,j} + T_{i-1,j}}{h_1^2}, \\ \frac{\varepsilon_{i+1,j}^{22} - 2\varepsilon_{i,j}^{22} + \varepsilon_{i-1,j}^{22}}{h_1^2} + \frac{\varepsilon_{i,j+1}^{22} - 2\varepsilon_{i,j}^{22} + \varepsilon_{i,j-1}^{22}}{h_2^2} &= \alpha \frac{3\lambda + 2\mu}{2(\lambda + 2\mu)} \frac{T_{i,j+1} - 2T_{i,j} + T_{i,j-1}}{h_2^2}. \quad (27) \\ \frac{\varepsilon_{i+1,j}^{12} - 2\varepsilon_{i,j}^{12} + \varepsilon_{i-1,j}^{12}}{h_1^2} + \frac{\varepsilon_{i,j+1}^{12} - 2\varepsilon_{i,j}^{12} + \varepsilon_{i,j-1}^{12}}{h_2^2} &= \alpha \frac{3\lambda + 2\mu}{2(\lambda + 2\mu)} \frac{T_{i+1,j+1} - T_{i+1,j-1} - T_{i-1,j+1} + T_{i-1,j-1}}{4h_1h_2}. \end{aligned}$$

(27) chekli-ayirmali tenglamalarni yechish uchun iteratsiya usulini qo'llash mumkin. Buning uchun (27) chekli-ayirmali tenglamalar sxemasini $\varepsilon_{i,j}^{11}$, $\varepsilon_{i,j}^{22}$, $\varepsilon_{i,j}^{12}$ ga nisbatan yechganimizda, quyidagi tenglamani hosil qilamiz:

$$\begin{aligned} \varepsilon_{i,j}^{11} &= \left(\frac{\varepsilon_{i+1,j}^{11} + \varepsilon_{i-1,j}^{11}}{h_1^2} + \frac{\varepsilon_{i,j+1}^{11} + \varepsilon_{i,j-1}^{11}}{h_2^2} - \alpha \frac{3\lambda + 2\mu}{2(\lambda + 2\mu)} \frac{T_{i+1,j} - 2T_{i,j} + T_{i-1,j}}{h_1^2} \right) / \left(\frac{2}{h_1^2} + \frac{2}{h_2^2} \right), \\ \varepsilon_{i,j}^{22} &= \left(\frac{\varepsilon_{i+1,j}^{22} + \varepsilon_{i-1,j}^{22}}{h_1^2} + \frac{\varepsilon_{i,j+1}^{22} + \varepsilon_{i,j-1}^{22}}{h_2^2} - \alpha \frac{3\lambda + 2\mu}{2(\lambda + 2\mu)} \frac{T_{i,j+1} - 2T_{i,j} + T_{i,j-1}}{h_2^2} \right) / \left(\frac{2}{h_1^2} + \frac{2}{h_2^2} \right), \quad (28) \\ \varepsilon_{i,j}^{12} &= \left(\frac{\varepsilon_{i+1,j}^{12} + \varepsilon_{i-1,j}^{12}}{h_1^2} + \frac{\varepsilon_{i,j+1}^{12} + \varepsilon_{i,j-1}^{12}}{h_2^2} - \alpha \frac{3\lambda + 2\mu}{2(\lambda + 2\mu)} \frac{T_{i+1}^{j+1} - T_{i+1}^{j-1} - T_{i-1}^{j+1} + T_{i-1}^{j-1}}{4h_1h_2} \right) / \left(\frac{2}{h_1^2} + \frac{2}{h_2^2} \right). \end{aligned}$$

(27) tenglamalarni iteratsion usul yoki o'zgaruvchan yo'nalishlar usuli bilan yechish mumkin.

4.4-paragraf uch va ikki o'lchamli dinamik chegaraviy masalalari uchun sonli modellarni qurishga bag'ishlangan. Tekis dinamik chegaraviy masala C_D^{2D} uchun chekli-ayirmali tenglamalar quyidagi ko'rinishda bo'ladi

$$\begin{aligned} (\lambda + 2\mu) \frac{\varepsilon_{i+1,j,k}^{11} - 2\varepsilon_{i,j,k}^{11} + \varepsilon_{i-1,j,k}^{11}}{h_1^2} + \lambda \frac{\varepsilon_{i+1,j,k}^{22} - 2\varepsilon_{i,j,k}^{22} + \varepsilon_{i-1,j,k}^{22}}{h_1^2} + \\ + 2\mu \frac{\varepsilon_{i+1,j+1,k}^{12} - \varepsilon_{i-1,j+1,k}^{12} - \varepsilon_{i+1,j-1,k}^{12} + \varepsilon_{i-1,j-1,k}^{12}}{4h_1h_2} &= \rho \frac{\varepsilon_{i,j,k+1}^{11} - 2\varepsilon_{i,j,k}^{11} + \varepsilon_{i,j,k-1}^{11}}{\tau^2}, \\ (\lambda + 2\mu) \frac{\varepsilon_{i,j+1,k}^{22} - 2\varepsilon_{i,j,k}^{22} + \varepsilon_{i,j-1,k}^{22}}{h_2^2} + \lambda \frac{\varepsilon_{i+1,j,k}^{11} - 2\varepsilon_{i,j,k}^{11} + \varepsilon_{i-1,j,k}^{11}}{h_2^2} + \\ + 2\mu \frac{\varepsilon_{i+1,j+1,k}^{12} - \varepsilon_{i-1,j+1,k}^{12} - \varepsilon_{i+1,j-1,k}^{12} + \varepsilon_{i-1,j-1,k}^{12}}{4h_1h_2} &= \rho \frac{\varepsilon_{i,j,k+1}^{22} - 2\varepsilon_{i,j,k}^{22} + \varepsilon_{i,j,k-1}^{22}}{\tau^2}, \quad (29) \\ (\lambda + \mu) \left(\frac{\varepsilon_{i+1,j+1,k}^{11} - \varepsilon_{i+1,j-1,k}^{11} - \varepsilon_{i-1,j+1,k}^{11} + \varepsilon_{i-1,j-1,k}^{11}}{4h_1h_2} + \frac{\varepsilon_{i+1,j+1,k}^{22} - \varepsilon_{i+1,j-1,k}^{22} - \varepsilon_{i-1,j+1,k}^{22} + \varepsilon_{i-1,j-1,k}^{22}}{4h_1h_2} \right) + \\ + \mu \left(\frac{\varepsilon_{i+1,j,k}^{12} - 2\varepsilon_{i,j,k}^{12} + \varepsilon_{i-1,j,k}^{12}}{h_1^2} + \frac{\varepsilon_{i,j+1,k}^{12} - 2\varepsilon_{i,j,k}^{12} + \varepsilon_{i,j-1,k}^{12}}{h_2^2} \right) &= \rho \frac{\varepsilon_{i,j,k+1}^{12} - 2\varepsilon_{i,j,k}^{12} + \varepsilon_{i,j,k-1}^{12}}{\tau^2}. \end{aligned}$$

Bunda tugun nuqtalardagi boshlang'ich shartlar quyidagi ko'rinishga,

$$\varepsilon_{ij0}^{11} = \xi_1, \quad \frac{\varepsilon_{ij1}^{11} - \varepsilon_{ij0}^{11}}{\tau} = \psi_1, \quad \varepsilon_{ij0}^{22} = \xi_2, \quad \frac{\varepsilon_{ij1}^{22} - \varepsilon_{ij0}^{22}}{\tau} = \psi_2, \quad \varepsilon_{ij0}^{12} = \xi_3, \quad \frac{\varepsilon_{ij1}^{12} - \varepsilon_{ij0}^{12}}{\tau} = \psi_3 \quad (30)$$

to'g'ri to'rtburchakli soha uchun chegaraviy shartlar esa quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi

$i = 0, N_1 : da$

$$(\lambda + 2\mu)\varepsilon_{0jk}^{11} = S_1, \quad 2\mu\varepsilon_{0jk}^{12} = S_2, \quad (31)$$

$$(\lambda + 2\mu)\varepsilon_{N_1jk}^{11} = S_1, \quad 2\mu\varepsilon_{N_1jk}^{12} = S_2,$$

$j = 0, N_2 : da$

$$(\lambda + 2\mu)\varepsilon_{i0k}^{22} = S_2, \quad 2\mu\varepsilon_{i0k}^{12} = S_1, \quad (32)$$

